

ABDULLA QODIRIY IJODINING O‘ZIGA XOSLIGI

Muqaddas Saitqulova

Alfraganus universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qodiriy ijodining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni hamda uning "O‘tkan kunlar" romanining badiiy-estetik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Asarda tarixiy voqelikning badiiy talqini, qahramonlar psixologiyasi, milliy qadriyatlar, jadidchilik g‘oyalari va ma’rifatparvarlik qarashlarining ifodalanish usullari yoritiladi. Shuningdek, romanning syujet-kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, til va uslub mahorati hamda milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada "O‘tkan kunlar" romanining nafaqat o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janrining yuksak namunasi, balki jahon adabiy makonida e’tirof etilgan asar sifatidagi o‘rni ham asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, "O‘tkan kunlar", tarixiy roman, badiiy mahorat, jadidchilik, milliy uyg‘onish, psixologik tahlil, obrazlar tizimi, badiiy til, realizm, o‘zbek adabiyoti, ma’rifatparvarlik.

XX asr boshlarida O‘zbek adabiyotiga yangi badiiy tafakkur, milliy uyg‘onish ruhi va tarixiy o‘zlikni anglash g‘oyalarini olib kirgan yozuvchi Abdulla Abdulla Qodiriy o‘zbek roman janrining asoschisi sifatida e’tirof etiladi. Abdulla Abdulla Qodiriy o‘z davrining ilg‘or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri xususida qayg‘urdi. Zamon taloto‘plari adib qalbini iztirobga soldi. "O‘tkan kunlar" romani orqali xalqning milliy ongini uyg‘otmoqchi, tariximizning eng kir, qora kunlari - yurtni mustamlaka balosiga yo‘liqtirgan keyingi noahil "xon zamonlari"dan so‘z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo‘ldi. Uning "O‘tkan kunlar" asari nafaqat adabiy hodisa, balki millatning tarixiy xotirasini uyg‘otgan, o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolarini badiiy tahlil qilgan yuksak asardir. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy ijodining asosiy xususiyatlari, xususan, "O‘tkan kunlar" romani misolida uning badiiy mahorati ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Abdulla Qodiriy ijodining eng muhim jihatlaridan biri tarixni badiiy talqin qilishda serg‘ak ilmiy pozitsiya tutishidir. Romanning ma’no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda

xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hoji shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar sanaladi.

“O'tkan kunlar” romani bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy- ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq-ravshan tasvirlanadi. Romandagi uchlik – oshiq, ma'shuqa va ag'yor, bir qarashda, an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo'r mahorat bilan ko'rsatiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebaho” – ishq-muhabbat tuyg'usiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi. Adabiyotshunos olim Naim Karimovning “Abdulla Abdulla Qodiriy Qomusi” nomli risolasida shunday fikrlari bor “Ko'p asrli o'zbek adabiyoti tarixidagi ikki adabiy asrni milliy adabiyotimiz tarixining oltin sahifalari, desak adolatdan bo'ladi. Agar shu ikki asrning biri buyuk Navoiy nomi bilan munavvar bo'lgan XV asr bo'lsa, ikkinchisi Abdulla Abdulla Qodiriy, Fitrat va Cho'lponning porloq ijodlari bilan boshlangan o'zbek adabiyoti -tarixining yangi davri – XX asrdir. Shu ikki oltin asrning mash'allari bo'lgan bu adiblarning har biri milliy adabiyotimiz tarixidagi mo'jizaviy voqea va har biri adabiy fenomendir. Abdulla Qodiriy asarlari misolida yangi o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Adib ijodining shunga o'xshash masalalari “Abdulla Abdulla Qodiriy qomusi”da adabiyotshunoslardan tashqari, tilshunos, folklorshunos, san'atshunos, Shu vaqtga qadar yaratilgan adabiy qomuslarda bo'lganidek, “Abdulla Abdulla Qodiriy qomusi” asosan besh qismdan: a) adib ijodiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy, ya'ni tahliliy maqolalar; b) adib zamondoshlari, izdoshlari, tadqiqotchilari va hokazolar haqidagi biografik maqolalar; v) adib asarlarida zikr qilingan tarixiy shaxslar, joy, asar, muassasa, me'moriy obida, o'simlik, kiyim-kechak va hokazolar haqidagi ma'lumotnomalar; g) adib hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy adabiyot hamda adib asarlari bibliografiyasi; d) adib asarlari tilining chastotali lug'atidan tashkil topadi. Shu besh qismning dastlabki uchasi, o'z navbatida, bir necha qismchalarga ajralib, bu qism

va qismchalarda berilajak maqola va materiallar kitobxonlarga adib yashagan tarixiy davr, uning adabiy muhiti va zamondoshlari, shajarasi, qarindosh-urug'lari, badiiy olami, asarlarining qardosh xalqlar adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri va hokazolar haqida malakali tasavvur beradi. Umid qilamizki, "Abdulla Abdulla Qodiriy qomusi"ning yaratilishi madaniy hayotimizda sezilarli voqea bo'ladi. Ammo bu sharaflı loyiha qatnashchilari oldida o'ta murakkab vazifalar va muammolar borki, bu muammolarni ham ilmiy jamoatchilik -yordamida hal qilish mumkin. Dinshunos, faylasuf va etnograf olimlarning ham ishtirok etishini taqozo etadi. Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojiaiy sahnalar kishini chuqur o'yg'a toldiradi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko'z oldimizda gavdalandiradi. Ayni damda o'lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolardir, degan fikrni g'oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi.

"O'tkan kunlar" tarixiy roman bo'lsa-da, u quruq voqea sanog'i emas, balki XIX asr Turkiston hayotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy muhitini jonli timsollar orqali ko'rsatadi. Muallif tarixiy faktlarni shunchaki qayta tiklamaydi; ularni o'z ruhiy kechinmalari, zamonaviy muammolar bilan mushtarak holda talqin qiladi". Shu bois roman ikki qatlamga ega:

1. Tarixiy qatlam – xonliklar davridagi tarkibiy parokandalik, ichki urushlar va milliy fojia.

2. Zamonaviy qatlam (Abdulla Qodiriyning yashagan davri) – jadidchilik mafkurasi, taraqqiyot va milliy birlik zarurati. Demak, roman tarixiy hikoya ortida jadidlarning milliy uyg'onish g'oyalarini ham ifodalaydi. Abdulla Qodiriy ijodining o'ziga xosliklaridan yana biri psixologik tahlilning chuqurligidir. Uning qahramonlari shablon emas; har biri murakkab ichki olamga ega, qarorlarida hayotiy ziddiyatlar mujassam. Otabek – jadidchilik ruhining badiiy ifodasi. U millat kelajagi uchun mas'uliyatni his qiladigan, savdo, iqtisod, madaniyat masalalarida ilg'or fikr yuritadigan ziyoli tipning ilk badiiy timsolidir. Abdulla Qodiriy Otabek orqali o'zbek jamiyatining modernizatsiya jarayoniga ehtiyoj borligini ishora qiladi. Ayol obrazi

sifatida Kumush – Abdulla Qodiriy mahoratining yorqin namunasi. U sevgi, sadoqat va poklik timsoli bo‘lish bilan birga, ayollar jamiyatdagi o‘rni masalasini ham yoritadi. Uning fojeaviy taqdiri o‘z davrining ijtimoiy tengsizliklari aks ettirgan. Zaynabning rashk, qo‘rquv, o‘zini-o‘zi himoya qilishga qaratilgan harakatsizligi ayollarning muhit tomonidan tor doiraga siqib qo‘yilganini anglatadi. Abdulla Qodiriy uni ayblamaydi; aksincha, uning ruhiy dunyosini tushuntirishga harakat qiladi. Amerikalik tadqiqotchi Mark Riz Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini ingliz tiliga tarjima qilish uchun 15 yil umrini sarfladi. U “Gazeta.uz”ga bergan intervyusida tarjimadagi qiyinchiliklar, nima uchun asar shunchaki muhabbat hikoyasi emas, avvalo islohotlar g‘oyasi haqida ekanligi va qanday qilib Abdulla Qodiriy asar orqali muhim ijtimoiy muammolarni olib chiqqanligi haqida so‘z yuritdi. U shuningdek jadidlar va ularning g‘oyalari bugun qanchalik hayotga tadbiq etilganligi haqida fikr bildirdi. 2020 yilda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ingliz tilida taqdim etildi. Tarjimaning muallifi amerikalik tarjimon va tadqiqotchi Mark Riz bo‘ldi. Mark Riz O‘zbekiston bilan birinchi marta 1994 yilda, Qo‘qonga Amerikaning “Tinchlik Korpusi” (Peace Corps) dasturi doirasida ko‘ngilli sifatida kelganida tanishgan. U ikki yil davomida 23-sonli maktabda ingliz tilidan dars berdi, shuningdek, o‘zbek tilini o‘rgandi. U o‘z intervyularidan birida ko‘plab oddiy amerikaliklar hali O‘zbekiston haqida to‘liq tasavvurga ega emasliklarini aytdi. Uning fikriga ko‘ra, “Tinchlik Korpusi” kabi dasturlar ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni rivojlantiradi. Qo‘shma Shtatlarga qaytib, u Vashington universitetida Turkiy tillar va adabiyot ixtisosligi bo‘yicha tahsil oladi, o‘zbek va uyg‘ur tillarini chuqur o‘rgana boshlaydi. Mark Abdulla Qodiriyning faoliyati bilan o‘zining ustozlari – professor Elza Sirtiut orqali tanishdi. Markning so‘zlariga ko‘ra, u Toshkent va Sietl shaharlari o‘rtasida birodarlik munosabatlarini o‘rnatish tashabbuschilaridan biri bo‘lgan. Sirtiutning rahbarligida Mark qadimiy turkiy tilning qadimgi shakllaridan biri bo‘lgan O‘rxun yozuvini o‘rgandi. U chig‘atoy tilini ham o‘rgandi. “O‘tkan kunlar” tarjimasi uchun asos sifatida Mark 1926-yilda nashr etilgan matnning asl nusxasidan foydalangan. Men xalqaro maktabda dars berishni juda xohlardim, biroq rus maktabida dars berishni istamadim. Hatto 90-yillarning boshlarida ham rus va o‘zbek tillarining maqomi bo‘yicha bahslar bo‘lardi. Ko‘plab hamkasblarim menga: “Rus tilini o‘rgansang yaxshi

bo'lardi, chunki u bilan sen postsovet hududining boshqa mamlakatlarida ishlashing mumkin bo'ladi" deyishardi. Ammo men doim o'zbek tiliga sodiq qolganman. Rus tili ajoyib til. Men rus adabiyotini yaxshi ko'raman, ammo Qo'qonda rus tilida gaplashishni qo'pollik deb bildim. Shohimardonga birinchi bor kelganimda, u yerda Ikkinchi jahon urushi medallari ko'ksini bezab turgan, chopon kiygan oqsoqolni uchratdim. U mening oldimga keldi va qo'limni siqib o'zbek tilidan: "Qayerdan siz, mehmon?" deb so'radi. "AQShdan", deb javob berdim o'shanda. U biz haqimizda faqat filmlarda ko'rganligini aytdi. "Siz men jonli ko'rgan birinchi amerikaliksiz", deya qo'shimcha qildi u. Bu voqea menda kuchli taassurot qoldirdi. O'zbek tilini o'rganishimning uzoq yo'li shu tarzda boshlandi. "Tinchlik korpusi" tajribasi menda javoblardan ko'ra ko'proq savollar qoldirdi. Besh ming kishi bilan juma namoziga chiqish baxtiga muyassar bo'ldim. Odamlar 74 yil ichida birinchi marta o'zlarining e'tiqodlarini ochiqchasiga ifoda etishdan qanchalik hayajonlanganlarini ko'rdim. Men havodagi eyforiyani his qilardim. 90-yillar qiyin va biroz xavfli edi. O'shanda ko'cha zo'ravonligi sabab ko'proq ehtiyot bo'lish kerak edi. Ammo boshqa tomondan, Arizonada o'sgan va universitetda post-kolonial tadqiqotlarni o'rgangan mendek bir yigitga yangi Respublikaning shakllanishini kuzatish kabi baxt nasib etdi. Eng qiyin qismlar Abdulla Qodiriy "ko'cha tili"ni ifodalagan joylar bo'ldi. Roman ustida ishlay turib, Abdulla Qodiriy romanga asl tilni singdirish uchun qishloqma-qishloq kezgan. Men Toshkentda yashaganimda, bu so'zlar va iboralarni tushunishim osonroq bo'lgan, ammo vaqt o'tishi bilan ular unutilib ketadi. Tarjima ustida ish boshlaganimda, manbalarim cheklangan edi. Hatto 2004-yilda ham men qiyinchiliklarga duch kelardim. 1960-yil nashr etilgan Sovet davridagi O'zbek tilining izohli lug'atidan foydalanganman, ammo zamonaviy tarjimonlar bilan taqqoslaganda mening manbalarim baribir ham cheklangan edi. O'zgarishlarga qaramay, men hali ham juda yaxshi zamonaviy o'zbek-ingliz lug'atini ko'rmadim. Shunday qilib, men mahalliy mutaxassislarga suyardim. Bu tarjima uchun 15-yil sarflanganining sabablaridan biri. U yoki bu jumla yoki so'z haqidagi fikrlari uchun mutaxassislarga murojaat qilardim, so'ng tahlil qilardim va tarjimaga qaytardim. Ba'zan ular bergan maslahatlar butunlay noto'g'ri bo'lib chiqardi. Rostini aytsam, hatto tarjimaning so'nggi variantini nashriyotga yuborishdan bir kecha oldin ham tuzatishlar kiritganman deb o'zining

intervyusida aytib o'tgan. Shu jihatdan Abdulla Abdulla Qodiriyning shoh asari sifatida "O'tkan kunlar" romanini tahlil qilamiz.

Abdulla Qodiriy asarlarining tilidagi soddalik uning eng katta badiiy yutuqlaridan biridir. "O'tkan kunlar"da: 1. Xalq og'zaki ijodidan olingan iboralar; 2. Turli lahja unsurlari; 3. O'sha davr kundalik nutqi; 4. Yumor va kinoya unsurlari o'rtacha mutanosiblikda qo'llanadi. Bu uslub roman tilini hayotiy, jonli va o'quvchiga yaqin qiladi. Ayniqsa, dialoglarning milliy ruh bilan sug'orilgani o'zbek xalqining qadriyatlarini yaqqol ko'rsatib bergan. "O'tkan kunlar"da jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy inqirozi bir necha yo'nalishlarda ochib beriladi:

1. Qabilachilik va eski urf-odatlarining hukmronligi;
2. Xonliklar o'rtasidagi parokandalik;
osiy tuzum;
4. Ayollar erksizligi;
5. Savdo-sotiqdagi adolatsizliklar.

Abdulla Qodiriy bu illatlarni tanqid qilish bilan birga, yangilanayotgan jamiyat modelini ham taklif qiladi. Bu Otabek timsolida gavdalanadi. Demak, Abdulla Qodiriy ijodi o'z zamonasi uchun ma'rifatparvarlik manifestini vazifasini bajargan. Asarning syujet qurilishi ham Abdulla Qodiriyning mahoratini ko'rsatadi.

1. Sevgi voqeasi – markaziy chiziq,
2. Siyosiy-ijtimoiy jarayonlar – fon,
3. Individual fojealar – umumiy milliy fojining badiiy ko'zgusi.

Kumushning o'limi romanning dramatik kulminatsiyasi sifatida o'zbek adabiyotidagi eng ta'sirli sahnalardan biridir. Asarda tasodiflar emas, ijtimoiy sabablar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, Abdulla Qodiriy realizmga sodiq qoladi. Abdulla Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ilk marta arab tiliga o'girilib, Misrda "O'tkan kunlar: Turkistondagi achchiq sevgi qissasi" nomi ostida taqdim etildi. Uni arab tilida o'qishni istaganlar Toshkentdagi Abdulla Abdulla Qodiriy uy-muzeyiga yoki Misrdagi elchixonaga murojaat qilishi mumkin. Qayd etilishicha, asar taniqli tarjimonlar Ayn-Shams va Luksor universiteti professori Muhammad al-Jibali tomonidan arab tiliga o'girildi. Tarjimada asarning eski o'zbek yozuvidagi ilk nusxasidan hamda rus va ingliz tillaridagi tarjimalaridan foydalanilgan. Kitob

taqdimoti Abdulla Abdulla Qodiriy tavalludining 130 yilligini nishonlash doirasida o'tkazildi. Misrdagi elchixona ma'lumotiga ko'ra, "O'tkan kunlar" romanining arab tiliga tarjima qilishda Saudiya Arabistonida istiqomat qilayotgan o'zbekistonlik Said Mahmud Kosoniy, doktor Murtazo Saydumarov, shayx Husaynixon Yahyo Abdumajidov, Misr-O'zbekiston do'stlik jamiyati raisi, professor Magdi Za'bal, tarjimon Feruza Galiyeva hamda o'zbek tili bo'yicha mutaxassislar Rahma Ibrahim, Habiba Mehmet Ali va boshqalar yordam bergan. Abdulla Abdulla Qodiriy ijodi, xususan, "O'tkan kunlar" romani - o'zbek adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishida burilish yasagan asardir. Unda psixologik obrazlar tizimi, xalqona til va uslub, ijtimoiy tanqid, milliy uyg'onish g'oyalari yuksak badiiy uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Abdulla Qodiriy yaratgan obrazlar, ko'tarilgan muammolar bugun ham dolzarbligini yo'qotgani yo'q. "O'tkan kunlar" millatning o'tmishiga nazar solishda ham, zamonaviy jamiyatni tushunishda ham bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek adabiy tafakkurining cho'qqisi, ma'rifatparvarlikning yorqin namunalaridan biri sifatida qadrlanadi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan ko'rinib turibdiki, Abdulla Abdulla Qodiriy ijodida milliylik ikki yo'nalishda o'z ifodasini topadi. Birinchidan, adib barcha asarlari, xususan, "O'tkan kunlar" romani badiiy niyatiga mavzuni o'z ona yurti, ona xalqi tarixi, mentalitetidan kelib chiqib ifodalash orqali erishadi. Ikkinchidan, mavzu, g'oya, obraz yechimi islom ma'rifati hamda jadidchilik ta'limotiga yo'g'rilgan va bu esa milliylikni yanada chuqurlashtirgan. Bundan tashqari, adib folklor asarlarining umumiy ruhidan ilhom olib, o'zi yaratgan obrazlar xatti-harakatida, ularning faoliyatini tasvirlashda oilaviy-maishiy muhit, xalqning urf-odatlar va marosimlaridan oziqlanib ijod qildi. Albatta, Abdulla Abdulla Qodiriyning folklor an'alariga munosabati bevosita emas, balki bilvosita soniyaga ega. Ana shunda ham adib o'zi yaratgan obrazlarning realistik qiyofasini ishonarli aks ettirishda, romanlar konfliktini hayotiy asoslarda rivojlantirish va hal etishda xalq og'zaki ijodi an'alariga murojaat etdi. Aniqroq qilib aytganda, Abdulla Abdulla Qodiriyning folklor an'alaridan foydalanishi sintezlash asosida amalga oshdi. Adib asarlariga diqqat bilan yondashilsa, ularda xalq hayotiga oid lavhalar, ayniqsa, folklorga xos komik obrazlarni o'z asari tarkibiga singdirib yuborganligi sezilib turadi. Uning "O'tgan kunlar" romanidagi

qiziqchi va masxarabozlarning san'ati real hayotidagi xalq tomosha san'atining roman tarkibiga mohirona singdirib yuborilganligining yorqin namunasi bo'la oladi. Abdulla Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanida maishiy-psixologik tasvirga moyillik bildiradi. Shu bois uning ushbu romanidagi folklor an'analari ham mana shu nuqtayi nazardan istifoda etilgan. Aytish mumkinki, yangi o'zbek adabiyotida epik obraz va epik rivoya (bayon), avvalo, Abdulla Abdulla Qodiriydan boshlangan bo'lib, bunda uning xalq og'zaki ijodi va yozma mumtoz adabiyotdagi poetik tasvir shaklini, romantik ifoda usulini realistik nasrga nihoyatda tabiiy ko'chirgani ulkan kashfiyot bo'ldi. Abdulla Abdulla Qodiriy asarlarida milliy ruh va folklor an'analari uyg'unlashib, ijodkorning o'ziga xos, betakror uslubini namoyon qiladi. Umumun olganda, Abdulla Abdulla Qodiriyning nafaqat "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlariyu, "Obid ketmon" qissasi, balki "Ahvolimiz", "To'y", "Millatimga", "Fikr aylagil" kabi she'rlarida, "Juvonboz", "Uloqda", "Jinlar bazmi" kabi hikoyalarida, "Baxtsiz kuyov" dramalarida ham milliy ruh hukmronlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev A. O'zbek jadidlari va ularning ma'naviy merosi. –Toshkent: O'zbekiston, 2015.
2. Karimov I. O'zbek adabiyoti va madaniyati tarixi. –Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Usmonov S. XX asr o'zbek adabiyoti va jadidchilik harakati. –Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2006.
4. Turdiyeva, Y. The Phenomenon OF Artistic Style in Uzbek Literature. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 6(12), 22-23.
5. Botirova, S. I. (2024). AESTHETIC PERCEPTION AND GENRE HARMONY. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(05), 80-85.
6. Ibragimova, D. I. (2024). AN ANALYSIS OF ISAJON SULTON'S HISTORICAL PROSE: ERA, HEROES, THEMES, AND IDEAS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(05), 120-127.
7. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she'riyatda Bobur g'azallarining poetik xususiyatlari. Alfraganus, (1 (1)), 30-34.
8. Botirova, S. I. (2024). AESTHETIC PERCEPTION AND GENRE

HARMONY. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(05), 80-85.

9. Botirova, S. I. (2024). LANDSCAPE IN SHORT ART. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(06), 38-44.

10. Isamiddinovna, B. S. THE STREAM-OF-CONSCIOUSNESS TECHNIQUE IN NONTRADITIONAL NOVELLAS: NEW STYLISTIC EXPLORATIONS IN UZBEK LITERATURE.

11. Botirova, S. (2025, November). AKADEMIK LITSEYDA O'ZBEK TILI O 'QITISHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI. In Conferences (Vol. 1, No. 01).

12. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.

13. Abduraimova, N., Sharopova, N., Khujaev, M., Sapayev, V., Fattoyeva, O., & Yusufov, S. (2025). Economic development through analysis of the education and entrepreneurship impacts. *Economic Annals-XXI/Ekonomičnij Časopis-XXI*, 214(3/4), 84.